

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashining  
2024-yil 5-yanvardagi  
9-13-0-Q/24-son qaroriga  
4-ilova

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga aloqa kanallari orqali korruptsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish**

**REGLAMENTI**

**1-bob. Umumiy koidalar**

1. Mazkur Reglament Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi (keyingi o‘rinlarda –Vazirlar Kengashi)da korruptsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va tegishli ta’sir choralarini ko‘rishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Reglament Vazirlar Kengashidagi aloqa kanallari orqali korruptsiyaviy xatti-harakatlar haqida kelib tushgan xabarlar bilan ishlashning asosiy tamoyillari, shuningdek, xabarlarni qabul qilish, ularni ro‘yxatdan o‘tkazish va ko‘rib chiqish, shuningdek, Vazirlar Kengashining Raisiga hisobot taqdim etish tartibini belgilaydi.

3. Mazkur Reglament maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalanaladi:

ishonch telefoni – Vazirlar Kengashiga telefon orqali kelib tushadigan murojaatlarni markazlashgan holda qabul qilish, tasniflash

va tizimlashtirish, shuningdek, o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqilishini monitoring qilish imkonini beruvchi tizim;

murojaatchi – aloqa kanallari orqali Vazirlar Kengashidagi korruptsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida axborot berish uchun murojaat qilgan har qanday jismoniy va (yoki) yuridik shaxs, xodim;

manfaatlar to‘qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, Vazirlar Kengashilarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

korruptsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish

maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korruptsiyaviy xarakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatçiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korruptsiyaga oid huquqbuzarlik – korruptsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi – amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlarni korruptsiyaviy jihatdan buzilishini bartaraf etish, Vazirlar Kengashi xodimlari tomonidan yuqori darajada kasbiy va axloqiy faoliyat olib borishlarini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar majmui;

korruptsiyaviy xavf-xatar – xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan Vazirlar Kengashi nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko‘zlab korruptsiyaviy harakatlarni sodir etish xavfi;

taaluqli xabar – Vazirlar Kengashidagi korruptsiyaviy harakatlar va (yoki) manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo‘lgan xabar;

xodim – Vazirlar Kengashi bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – xodim tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarishi chog‘ida o‘zi yoki uchinchi shaxslarning manfaatlari yo‘lida xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy boyliklar, boshqa mol-mulk va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijoriy yoki notijoriy manfaatlari).

4. Vazirlar Kengashi korruptsiyaviy harakatlar haqida axborot berishga mo‘ljallangan aloqa kanallarining ishini quyidagi tamoyillar asosida tashkil etadi:

konfedentsiallik va xavfsizlik – aloqa kanallaridagi xabarlardan foydalanishga ruxsat berilgan Vazirlar Kengashining barcha vakolatli shaxslari ushbu xabarlarini vakolatga ega bo‘lmagan shaxslarga berish (oshkor qilish) ga haqqi yo‘q. Agar murojaatchi o‘z xabarini yuborganligi xaqida boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga o‘z xohishiga ko‘ra, jumladan, ehtiyoitsizligi natijasida oshkor qilgan bo‘lsa, Vazirlar Kengashi uning oshkor bo‘lishiga javobgar bo‘lmaydi;

qonuniylik – Vazirlar Kengashi aloqa kanallariga kelib tushadigan xabarlarini qabul qilish, ro‘yxatga olish, qayta ishslash va ko‘rib chiqish qat’iy ravishda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va ushbu Reglamentga muvofiq amalga oshiriladi;

murojaatchining ta’qib qilinmasligi – aloqa kanallari orqali korruptsiyaviy harakatlar haqida o‘z xohishiga ko‘ra xabar bergan jismoniy va yuridik shaxs, xususan Vazirlar Kengashi xodimi xabarning mazmunidan qat’i nazar biron-bir javobgarlikka tortilmaydi;

murojaatchi bilan majburiy tartibdagi qayta aloqa – agar xabar anonim bo‘lmasa, uni ko‘rib chiqish natijalari Vazirlar Kengashi tomonidan murojaatchiga yetkazilishi lozim;

ta’sir choralarini qo‘llashning majburiyligi – korruptsiya fakti tasdiqlangan taqdirda, Vazirlar Kengashi aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq harakat qiladi.

## **2-bob. Korruptsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun aloqa kanallari**

5. Taaluqli xabar quyidagi aloqa kanallaridan yuborilishi mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi (<https://pm.gov.uz/>) orqali;

Vazirlar Kengashining rasmiy veb-sayti yoki elektron pochtasi orqali;

Vazirlar Kengashining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari (misol uchun Facebookdagi rasmiy sahifasi (<https://www.facebook.com/>\_\_\_\_\_)) orqali;

Vazirlar Kengashining telefon raqamlari orqali (ishonch va boshqa ish telefon raqamlari orqali);

Vazirlar Kengashining telegram boti (@\_\_\_\_\_ \_bot)

Vazirlar Kengashiga og‘zaki (shaxsan) murojaat qilish;

huquqni mahofaza qiluvchi organlar orqali;

mazkur Reglamentda ko‘rsatilmagan boshqa aloqa kanallari.

6. Vazirlar Kengashi aloqa kanallari to‘g‘risidagi axborotni rasmiy veb-sayt, va ijtimoiy tarmoqdagi sahifa va kanallariga joylashtiradi, shuningdek, xodimlarga davriy ravishda yuboriladigan elektron xatlar tarqatmalariga va o‘quv materiallariga kiritadi, Vazirlar Kengashi binosida joylashtiriladigan tematik plakatlar va hokazolarda aks ettiradi.

### **3-bob. Aloqa kanallari orqali kelib tushayotgan taaluqli xabarlarni qabul qilish**

7. Vazirlar Kengashining Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi (keyingi o‘rinlarda – Ichki nazorat bo‘limi) Vazirlar Kengashining aloqa kanallaridan kelib tushgan taaluqli xabarlarni ko‘rib chiqishga mas’ul hisoblanadi.

8. Vazirlar Kengashining quyidagi aloqa kanallaridan kelib tushgan taaluqli xabarlar Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 maydagi 341-sod qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi Vazirlar Kengashilarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizom va Vazirlar Kengashining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi nizom talablarida nazarda tutilgan tartibda ro‘yxatga olinadi va rezolyutsiya uchun Vazirlar Kengashi rahbariga chiqariladi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali;

Vazirlar Kengashining rasmiy veb-sayti yoki elektron pochtasi orqali;

Vazirlar Kengashining telefon raqamlari orqali (ishonch va boshqa ish telefon raqamlari orqali);

Vazirlar Kengashiga og‘zaki (shaxsan) murojaat qilish;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar orqali.

9. Vazirlar Kengashining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari va telegram boti orqali kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish uchun Ichki nazorat bo‘limi mas’ul xodimi tayinlanadi.

Bunda, taaluqli xabar kelib tushganda Ichki nazorat bo‘limi xodimi murojaatchi bilan elektron yozishma yo‘li bilan yoki telefon orqali bog‘lanib zarur axborotni aniqlashtiradi, xabarni Reestrda ro‘yxatga oladi va ma'lumotni Vazirlar Kengashi raxbariga kiritadi.

Ichki nazorat bo‘limi xodimi kelib tushadigan xabarlarni dushanbadan jumagacha soat 09:00 dan 18:00 ga qadar tahlil qiladi. Agar xabar ish vaqtidan tashqari paytda kelib tushsa, bu xabar navbatdagi ish kunida aniqlashtirish uchun saqlanadi.

10. Agar murojaatchi o‘z xabarini tasdiqlash uchun qo‘srimcha materiallarga, masalan, fotomateriallar, hujjatlar, audio va videoyozuvlarga ega bo‘lsa, murojaatni qabul qilishga mas’ul xodim ularni taqdim etish bo‘yicha foydalaniladigan aloqa kanallarini (telegram boti yoki elektron pochtasi)ni ko‘rsatadi va taqdim etiladigan ma'lumotni konfedentsialligini bildiradi. Mazkur ma'lumotlar taaluqli xabarga ilova sifatida rasmiylashtiriladi.

11. Vazirlar Kengashining Raisi taaluqli xabarni tezkorlik bilan tahlil qilish va ko'rib chiqish uchun Vazirlar Kengashining Ichki nazorat bo'limiga topshiriq tushiradi.

12. Vazirlar Kengashining Ichki nazorat bo'limi taaluqli xabarni olgandan keyin

1 (bir) soat ichida uni ilovaga muvofiq shaklda Vazirlar Kengashida korruptsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish reestrida (keyingi o'rnlarda – Reestr) ro'yxatga olishi va ushbu Reglamentning 4-bobiga muvofiq ko'rib chiqishi lozim.

13. Vazirlar Kengashi murojaatchilarga xodim tomonidan sodir etilgan korruptsiyaviy xarakatlar to'g'risida anonim xabarlar qoldirish imkoniyatini beradi.

Anonim xabar kelib tushgan taqdirda Vazirlar Kengashining ma'sul xodimi, imkon mavjud bo'lган taqdirda, quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

Vazirlar Kengashiga kelib tushgan xabarga javob berish uchun murojaatchi bilan bog'lanma olmasliklari mumkinligi haqida ma'lum qilishi;

qo'shimcha zarur ma'lumot olish imkoniyati bo'lmagan taqdirda xabarni to'liq va har tomonlama o'rgana olmasliklarini bildirishi;

murojaatchiga u bilan bog'lanish uchun anonim aloqa kanali tashkil qilishni taklif qiladi (shaxs ko'rsatilmagan elektron pochta manzili, Telegramdagi maxfiy chat va.b.);

Murojaatchi o'z arizasidan voz kechmagan taqdirda, mazkur Reglamentda nazarda tutilgan tartibda xabarni qabul qilishi shart.

14. Vazirlar Kengashi xodimlari tomonidan olingan xabarlarni ko'rib chiqish jarayonida korruptsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etishning sabab

va sharoitlari ham tahlil qilinadi va kelgusida ularning oldini olish hamda korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar amalga oshiriladi.

15. Olingan xabarlar bo'yicha barcha taaluqli materiallar, hujjatlar

va ma'lumotlar (shu jumladan, qabul qilingan qarorlar va murojaatchilarga yuborilgan javoblar) Murojaatlar bilan ishslash bo'limida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan muddatga, shu bilan birga 10 yildan kam bo'lmagan muddatga saqlanishi kerak.

16. Taaluqli xabar Vazirlar Kengashining tarkibiy bo'linmalarga kelib tushgan taqdirda, uni qabul qilgan mas'ul xodimlar zudlik bilan yozma shaklda Ichki nazorat bo'limiga yuboradi. Ichki nazorat bo'limi olingan xabarni 11-bobida bayon etilgan tartibga muvofiq ko'rib chiqadi.

17. Vazirlar Kengashining tarkibiy bo'linmalari o'zlarining Reestrini yuritadi.

#### **4-bob. Korruptsiyaviy harakatlar haqidagi xabarlarni ko‘rib chiqish**

18. Ichki nazorat bo‘limiga kelib tushgan barcha taaluqli xabarlar ushbu tuzilmaning mas’ul xodimlari yoki Vazirlar Kengashining Raisi topshirig‘iga asosan boshqa bo‘linmalar tomonidan ko‘rib chiqiladi.

19. Korruptsiyaviy xarakatlari to‘g‘risidagi xabarlarni ko‘rib chiqish jarayoniga, harakatlari ustidan taaluqli xabar kelib tushgan yoki ko‘rib chiqish jarayonida manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xodimlarni jalb qilish man etiladi.

20. Taaluqli xabar kelib tushganda Ichki nazorat bo‘limi xodimi dastlabki tekshirish o‘tkazib, uning taaluqlilagini tahlil qiladi, ya’ni xabarda ko‘rsatilgan ma'lumotning Vazirlar Kengashi tizimiga taaluqli korruptsiyaga oid huquqbazarlikka va (yoki) manfaatlar to‘qnashuviga tegishlilagini tekshiradi.

Dastlabki tekshirish taaluqli xabar Ichki nazorat bo‘limiga kelib tushgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

21. Mazkur Reglamentning 19-bandida nazarda tutilgan dastlabki tekshirish natijalaridan qat'i nazar, bu haqdagi axborot Reestriga kiritiladi.

22. Agar Ichki nazorat bo‘limi xodimi xabar taaluqli emas degan xulosaga kelsa, bu xabar bir ish kuni ichida Vazirlar Kengashining tegishli bo‘limiga bildirgi asosida o‘tkazilishi lozim.

23. Agar xabarda korruptsiyaviy harakatlar va (yoki) manfaatlar to‘qnashuvi haqida ma'lumot hamda xizmat tekshiruvini o‘tkazish uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lsa, Ichki nazorat bo‘limi xodimi ichki idoraviy hujjatda belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini o‘tkazish tashabbusi bilan chiqadi.

24. Taaluqli xabarlarni mazmunan ko‘rib chiqish Vazirlar Kengashiga kelib tushgan kundan e’tiboran bir oy ichida, tekshirish o‘tkazish, qo‘srimcha materiallarni so‘rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko‘rish zarur bo‘lgan hollarda, ularni ko‘rib chiqish muddatlari, Vazirlar Kengashining Raisi tomonidan istisno tariqasida uzog‘i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga (anonim murojaatlardan tashqari) xabar qilinadi.

25. Murojaatga javob Ichki nazorat bo‘limi tomonidan tayyorlanib, Vazirlar Kengashining Raisi imzosi bilan rasmiylashtiriladi.

26. Taaluqli xabarlarni ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra o‘rganish natijalari va qo’llanilgan ta’sir choralarini ko‘rsatilgan javob xati tayyorlanadi va belgilangan tartibda murojaatchiga yuboriladi.

27. Ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar va telegram-bot orqali kelib tushgan

taaluqli xabarga javob murojaatchiga elektron shaklda ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar yoki telegram-bot orqali yuboriladi.

### **5-bob. Hisobdorlik**

28. Reestr dan Ichki nazorat bo'limi xodimlari, xabarlarni ko'rib chiqishda ishtirok etgan tegishli boshqa davlat organlarining xodimlari (faqat shunday xabarlargaga doir), Vazirlar Kengashining Raisi yoki korruptsiyaga qarshi kurashish yo'nalishini nazorat qiluvchi o'rinnbosari foydalanishi mumkin.

29. Reestr ma'lumotlari asosida Ichki nazorat bo'limi har chorakda Vazirlar Kengashining Raisiga qabul qilingan korruptsiyaviy xarakatlar to'g'risidagi xabarlargaga taalluqli bo'lgan hisobotni taqdim etadi va unda quyidagilar ko'rsatiladi:

kelib tushgan taaluqli xabarlar va ko'rib chiqilgan taaluqli xabarlar soni;

korruptsiyaviy xarakatlar, manfaatlar to'qnashuvi holatlari tasdiqlangan taaluqli xabarlar soni;

ko'rib chiqish muddatlari buzilgan taaluqli xabarlar soni;

taaluqli xabarlarni ko'rib chiqishning o'rtacha muddati;

murojaatchilar tomonidan eng ko'p foydalaniladigan aloqa kanallari va boshqa statistik ma'lumotlar.

### **6-bob. Yakuniy qoida**

30. Mazkur Reglament talablarini buzish belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

31. Mazkur Reglament, murojaatlar va korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi o'zgarganda qayta ko'rib chiqilishi lozim.

### **Vazirlar Kengashida korruptsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish**

### **REESTRI**

Nº	Xabar kelib tushgan sana	Hudud	Xabarning toifasi (korruptsiyaviy xatti-harakat, manfaatlar to'qnashuvi)	Murojaatlar bilan ishlash tizimida ro'yxatga olingan sana va raqami	Xabar yuborilgan aloqa kanali	Murojaatchi ma'lumotlari (jismoniy yoki yuridik shaxs, qayta aloqa ma'lumotlari)	Xabarning qisqacha mazmuni	Xabar taaluqli bo'lgan tuzilma	Ko'rib chiqish matijalari qanoatlanтирилди tushuntirish berildi/ ko'rmasdan goldirildi	Murojaatchiga javob yuborilgan sana va xat raqami
1.										
2.										